

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024 1-SON
ILOVA TOPLAM: GEOGRAFIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.A.Xamidov

Geoekologik muammolar va ularning yechimiga oid kontsepsiyalar (Farg'ona vodiysi misolida)263

Z.X.Madaminov, M.R.Mahammadova

Iste'molni tadqiq etish va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash salohiyatini baholash metodlari268

M.N.Xabibullayeva

Andijon viloyati ma'muriy tumanlari va markazlarining toponimik taxlili.....272

K.K.Uzakbaev

Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisining joylashuv tizimi xizmat ko'rsatish sohalari hududiy rivojlanishining omili sifatida.....280

F.N.Alimjanov

Global iqlim o'zgarishi sharoitida talabalarni ekologik faolligini oshirishni pedagogik omillari...288

S.M.O'ktamova

Shohimardonsoy daryo havzasi antropogen landshaftlaridagi geoekologik holat va oqibatlarini baholash masalalari292

Sh.Sh.No'monov, M.A.Badalova

Hududlarni barqaror rivojlantirishda yerdan foydalanishning o'rni.....297

J.J.Mamatisakov

Bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarini o'quvchilarda geologik ko'nikmalarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari303

B.S.Tojiddinov

Yer resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash usullari306

N.A.Fattoxov, S.T.Sobirova

Antropogen omilning shaharlar geoekologik vaziyatiga ta'siri (Farg'ona-Marg'ilon aglomeratsiyasi misolida)312

HUDUDLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA YERDAN FOYDALANISHNING O'RNII

РОЛЬ ЗЕМЛЕПОЛЬЗОВАНИЯ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ ТЕРРИТОРИЙ

ROLE OF LAND USE IN SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF TERRITORIES

No'monov Shukurjon Shokirjon o'g'li¹¹Farg'ona davlat universiteti
geografiya (o'rganish obyekti bo'yicha) mutaxassisligi magistrantiBadalova Madina Abosjonovna²²Farg'ona davlat universiteti
geografiya (o'rganish obyekti bo'yicha) mutaxassisligi magistranti**Annotatsiya**

Maqolada xalqaro va mahalliy miqyosda yer resurslariga bo'lgan talabning tobora ortib borayotganligi, aholi va xalq xo'jaligi tarmoqlarining yer resurslariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash maqsadida yangi yerlarni o'zlashtirishning imkonsizligi, o'zlashtirilgan yerlardan yanada intensiv foydalanish jarayonining kuchayib borayotganligi kabi masalalar tadqiq etiladi. Yer fondi tabiiy-landshaft tarkibining o'zgarishi, biologik xilma-xillikni pasayishi bilan birga aholining yerlar bilan ta'minlanganlik holatini ham tobora pasayib borayotganligi, aholi yashaydigan hududlarning asosiy ko'rsatkichi bo'lgan yer resurslari uning hududiy tashkil etilishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri ekanligi misollar bilan tushuntiriladi. Shuningdek, landshaftshunoslik va yer tuzish sohalari o'rtasida o'zaro bog'liqlikni e'tiborga olib, yerdan foydalanish turlarini imkon darajasida tabiiy-landshaft talabidan kelib chiqib belgilash, landshaftli rejalashtirish tamoyillaridan foydalanish muhim ekanligi asoslanadi.

Аннотация

В статье постоянно увеличивается спрос на земельные ресурсы на международном и местном уровне, невозможность приобретения новых земель в целях обеспечения потребностей населения и отраслей народного хозяйства в земельных ресурсах, а также процесс более интенсивного использования земельных ресурсов. приобретаемая земля увеличивается, вопросы изучаются. Изменение природного и ландшафтного состава земельного фонда, наряду с уменьшением биологического разнообразия, сокращается и земельная обеспеченность населения, а земельные ресурсы, являющиеся основным показателем населенных пунктов, влияют на его территориальную организацию. На примерах поясняется, что это один из основных факторов. Также, учитывая взаимозависимость областей ландшафтоведения и землеустройства, утверждается, что важно максимально определять виды землепользования, исходя из природных и ландшафтных требований, и использовать принципы ландшафтного планирования.

Abstract

The article constantly increases the demand for land resources at the international and local level, the impossibility of acquiring new lands in order to meet the needs of the population and sectors of the national economy for land resources, as well as the process of more intensive use of land resources. The acquired land is increasing, issues are being studied. Changes in the natural and landscape composition of the land fund, along with a decrease in biological diversity, also reduce the land supply of the population, and land resources, which are the main indicator of settlements, affect its territorial organization. Examples explain that this is one of the main factors. Also, given the interdependence of the fields of landscape science and land management, it is argued that it is important to determine land uses as much as possible based on natural and landscape requirements, and to use the principles of landscape planning.

Kalit so'zlar: yer fondi, yer resurslari, intensiv foydalanish, barqaror rivojlanish, antropogen bosim, demografik bosim, tabiiy-hududiy tizimlar, qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish konsepsiyasi.

Ключевые слова: земельный фонд, земельные ресурсы, интенсивное использование, устойчивое развитие, антропогенный пресс, демографический пресс, природно-территориальные системы, концепция устойчивого развития сельского хозяйства.

Key words: land fund, land resources, intensive use, sustainable development, anthropogenic pressure, demographic pressure, natural-territorial systems, sustainable agriculture.

KIRISH

Jahonda aholi va xalq xo'jaligi tarmoqlarining yer resurslariga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash maqsadida yangi yerlarni o'zlashtirish, o'zlashtirilgan yerlardan yanada intensiv foydalanish jarayoni kuchaymoqda. Bu esa yer fondi tabiiy-landshaft tarkibining o'zgarishi, biologik xilma-xillikni pasayishi bilan birga aholining yerlar bilan ta'minlanganlik holatini ham tobora pasaytirib yubormoqda. Aholi yashaydigan hududlarning asosiy ko'rsatkichi bo'lgan yer resurslari uning hududiy tashkil etilishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardandir. Ammo yer resurslari bilan

ta'minlaganlikning keyingi yillarda keskinlashuvi o'zining salbiy oqibatlarini ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda namayon etib bormoqda.

Dunyoda mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarga, ayniqsa, yerlardan barqaror rivojlanish tamoyillariga mos holda foydalanish, yer resurslarining toboro kamayib borishi hamda yer resurslaridan oqilona foydalanishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Shuningdek, landshaftshunoslik va yer tuzish sohalari o'rtasida o'zaro bog'liqlikni e'tiborga olib, yerdan foydalanish turlarini imkon darajasida tabiiy-landshaft talabidan kelib chiqib belgilash, landshaftli rejalashtirish tamoyillaridan foydalanish muhim hisoblanadi.

Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev mintaqamizdagi hozirgi iqlim o'zgarishi va suv taqchilligi sharoitida yer resurslaridan oqilona foydalanish jamiyatning barqaror rivojlantirishni asosiy shartlaridan biri sifatida qaralmog'i zarurligi, biroq, hozircha bu holatni yaxshi emasligiga e'tibor qaratmoqda. Jumladan, 2017-yil 31-may kuni «Yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish borasida nazoratni kuchaytirish, geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlari yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonida shunday deyiladi: «...yer resurslaridan maqsadli, oqilona va samarali foydalanish, yerlarni muhofaza qilish yuzasidan davlat nazoratini hamda tuproq unumdorligini oshirish bo'yicha hududiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish borasidagi ishlari qoniqarsiz, deb hisoblansin». Farmonda ta'kidlangan barqarorlikni ta'minlovchi hududiy dasturlarni yer bilan bog'liq bandlarini ishlab chiqish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanib, ushbu yo'nalishda muvofaqiyatga erishishda boshqa soha vakillari (yer tuzuvchilar, tuproqshunoslar, iqtisodchilar...) bilan bir qatorda geograflar hamkorligi kutilgan natijani beradi. Chunki hududiy barqarorlikni ta'minlashda xo'jalikni hududiy tashkil etuvchi mutaxassislar (yer tuzuvchi, tuproqshunos va iqtisodchi)ning bir tomonlama, iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan harakatlarini meyorlashtirishda barqaror rivojlanishni ta'minlovchi ekologlar va tabiiy geograflarning o'ziga xos yondashuvlari alohida ahamiyatlidir [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda bir-birini to'ldirib boruvchi ketma-ketlikda bajariluvchi 6 ta blokdan iborat metoddan foydalaniladi.

Birinchi blokda antropogen bosimning demografik turi o'rganiladi. Y.Ahmadaliyev va D.Mo'minov tomonidan bajarilgan ishlardan farq qilib, ushbu tadqiqotda qishloq aholisi emas, balki butun ma'muriy tuman aholisi ko'rsatkichlari o'rganilgan. Olingan ko'rsatkichlar ham hududdagi xaqiqiy demografik bosimni ifodalash uchun, X.Abduvaliyev tomonidan taklif qilingan 1 ga sug'oriladigan yerga to'g'ri keladigan aholi soni o'rganildi. Bu an'anaviy, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'oriladigan ekin yerlar miqdoriga nisbatan demografik bosimni aniqroq ifoda qilishi X.Abduvaliyev tomonidan asoslab berildi [3].

Ikkinchi blokda agrotexnik bosim miqdori o'rganib chiqiladi. Qishloq xo'jaligida ishlatiladigan og'ir texnikani ko'p marta dalaga kirishi tuproqqa (tarkibini buzib, zichlashuviga), mikroorganizmlarning nobud bo'lishiga hamda dala faunasining keskin kamayib ketishiga sabab bo'lishi tadqiqotlarda aniqlangan. V.Kravchenko, G.Brauchinskiy tadqiqotlarida og'ir texnikani tuproq mexanik tarkibiga ta'siri o'rganilgan bo'lsa, S.P.Manush tomonidan og'ir texnikani yovvoyi hayvonlar va mikroorganizmlarga zararli ta'siri o'rganilgan.

Uchinchi blokda agrokimyoviy bosim miqdori hisobga olinadi. Kimyoviy o'g'itlar va o'simliklarni kimyoviy usulda himoya qilish vositalarini yer resurslariga hamda butun atrof-muhitga salbiy ta'siri va uni minimal holatida kutilgan hosilni olish masalalari yaxshi o'rganilgan. Asosiy ko'rsatkichlar sifatida 1 ga ekin yerga solinadigan kimyoviy mineral o'g'itlar (N , R_2O_5 , K_2O) va o'simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalari olinadi.

To'rtinchi blokda irrigatsion bosim ko'rsatkichlaridan yer fondi va qishloq xo'jalik yerlari tarkibidagi sug'oriladigan jami yerlar salmog'i (foiz bo'yicha) o'rganib chiqiladi. Albatta, arid iqlim sharoitida dehqonchilikni irrigatsiyani rivojlantirmasdan turib yuritish qiyin. Biroq, hududdagi sug'oriladigan maydonlarni ham ma'lum meyor bo'lishi, tabiatdagi muvozanatni, landshaft xilmaxilligini ta'minlaydigan o'rni bo'lishi talab qilinadi.

Beshinchi bosqichda yuqoridagi tahlillarga asoslanib, Farg'ona viloyatida yerdan foydalanish jarayonida yuz berayotgan va kelajakda yuz berishi mumkin bo'lgan muammolar ochib beriladi.

Oltinchi bosqichda ma'muriy tumanlar yer fondidan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha landshaftli rejalashtirish tamoyillariga asoslangan tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bu tavsiyalar ma'muriy tumanlardagi landshaft turlariga mos holda, ularning antropogen bosim turlariga chidamlilik

darajasini, tashqi ta'sirlarning har bir turiga qarshilik ko'rsatish imkoniyatini e'tiborga olgan holda ishlab chiqiladi.

TADQIQOTNING MAQSADI VA VAZIFALARI

Farg'ona viloyati ma'muriy tumanlari sug'oriladigan yerlarida aholi joylashuvining hududiy tizimlari hisoblanadi. Tadqiqotning predmeti esa Farg'ona viloyatida aholi zichligini takomillashtirishda yerlar bilan ta'minlanganlik omilining o'rni va ahamiyati hisoblanadi.

Farg'ona viloyatida aholining yer resurslari bilan ta'minlanganlik holatni baholash asosida uni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Belgilangan maqsad doirasida aholini yer bilan ta'minlanganlik holatini tahlil etish, mavjud uslubiyotlarni takomillashtirish;

Farg'ona viloyatida sug'oriladigan yerlar bilan ta'minlanishni ma'muriy-hududiy birliklar doirasidagi holatlarini kartografik, statistik tahlili asosida hisoblash;

Aholini hududiy tashkil etilishini takomillashtirishda yerlar bilan ta'minlanganlik imkoniyatlaridan foydalanishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash vazifalar sifatida tanlangan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Jahonda va O'zbekistonda Barqaror rivojlanish konsepsiyasini hayotga tadbiq etilishida yer resurslarining o'rni va ahamiyati juda yuqori. Mazkur yo'nalishda istiqboldagi yo'nalishlarni belgilash uchun dastlab, mazkur konsepsiyani yuzaga kelish tarixi, sharoitlari va yer resurslari bilan bog'liq jihatlarini tadqiq etish dastlabki vazifa qilib belgilandi.

Qariyb 30 yil davomida jahon hamjamiyati va ilmiy izlanishlarda keng qo'llanib kelinayotgan ingliz tilidagi «Sustainable Development», rus tilidagi «Ustoychivoje razvitiye» iborasi o'zbek tiliga «Barqaror rivojlanish» deb tarjima qilinadi. Fanda va turli mamlakatlarda uning turg'un, qo'llab-quvvatlanayotgan, avaylanayotgan, davomli, uzluksiz, muvozanatli, yashil rivojlanish (taraqqiyot) kabi turli ifodalar ishlatib kelinmoqda.

Kishilik jamiyatining barqaror rivojlanishini ta'minlashda yer resurslarini beqiyos o'rnini asoslash uchun uning tabiatdan foydalanish tarixiga qisqacha nazar tashlasak, insoniyatni hozirgacha bo'lgan tabiatdan foydalanish tarixida to'rtta keskin burilish nuqtasi bo'lganligi tabiat va iqtisodiyot tarixi bilan shug'ullanuvchi ko'plab olimlar tomonidan e'tirof etilgan. Shuni qayd etish zarurki, taraqqiyotning har bir burilish nuqtasidagi o'zgarishlar markazida insoniyatning yer resurslaridan foydalanish tizimidagi innovatsion o'zgarishlar yotadi.

Tabiatdan foydalanishdagi birinchi keskin o'zgarishga sabab bo'lgan jarayonlar bundan taxminan 10 ming yil burun sodir bo'lib, tarixda «neolit revolyutsiyasi» nomi bilan atalgan. Bunda jahon xalqlarining katta qismi o'troq hayot kechirish tarziga o'tgan, yer resurslaridan yaylov va termachilikda foydalanishdan voz kechib, dehqonchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullana boshlagan. Ayniqsa, obikor dehqonchilikning rivojlanishi jamiyatda barqarorlik va farovonlikni ta'minlashga katta xissa qo'shgan.

Ikkinchi keskin o'zgarish XVII-XVIII asrlarda dastlab G'arbiy Yevropada yuz berdi. Industriyalashtirish davrida aholisi zich mamlakatlar qishloq xo'jaligida yer resurslarining yetishmasligi hunarmandchilik va sanoatni keskin rivojlanishiga turtki bergan.

Uchinchi keskin burilish davrida XX asrning ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlari yerdan foydalanishga jalb etildi. Ayniqsa qishloq xo'jaligidagi kimyolashtirish, mexanizatsiyalashtirish va irrigatsiya tizimining rivojlanishi bu davrni «yashil inqilob» davri deb atalishiga sabab bo'ldi.

Bu uchta inqilobiy o'zgarishlar kishilik jamiyati hayotida to'qlik, farovonlik va osuda to'kin hayotni ta'minladi. Biroq, bu o'zgarishlar kishilik jamiyatining imkoniyatlari cheksiz, u nafaqat ona yer tabiatini, balki, butun olamni bo'ysundirilishi mumkin, degan xayoliy tushunchani keltirib chiqardi. Ammo XX asrning o'rtalariga kelib, jamiyatning to'xtovsiz o'sib borayotgan ehtiyojlari bilan qat'iy cheklangan Yer sayyorasi va uning resurslari hajmi o'rtasida nomutanosiblik borligi ma'lum bo'ldi. Yaqin kelajakda, o'n yilliklar orasida Yer sharida yuz berishi mumkin bo'lgan ekologik inqiroz xavfi haqidagi fikrlar paydo bo'ldi. Undan qutilishning yagona yo'li sifatida an'anaviy xo'jalik yuritish tizimida tubdan o'zgarish qilishni talab qiluvchi to'rtinchi burilish nuqtasi sifatida «Barqaror rivojlanish» konsepsiyasi yuzaga keldi. Bu konsepsiyada ham asosiy e'tibor yer resurslariga qaratilmoqda.

Ushbu konsepsiyaning yaratilishiga kishilik jamiyatining ayniqsa, jadal iqtisodiy o'sishning Yer shari tabiatiga ko'rsatayotgan ta'siri va uning oqibatlarini keskin namoyon bo'lishi sabab bo'ldi. Yevropada sanoatning jadal rivojlanishi natijasida birinchi marta inson o'limiga sabab bo'lgan tabiatdagi hodisa «smog tumanlari» kuzatildi. Londonda 1952 yilda 4 kun mobaynida 4 ming odam,

1963-yilda Nyu-Yorkda 300 odam vafot etdi. Bunday holatlar 1956, 1957, 1960 yillarda tez-tez takrorlanib turdi. Shu bilan birga, yer resurslarining degradatsiyasi, yer osti boyliklarining miqdor jihatdan tugab qolish xavfi (ayniqsa, neft-gaz resurslari), dunyo okeani va oqar suvlarning ifloslanishi, kislotali yomg'irlar yog'ishi, ozon tuynugi kabi holatlar kishilik jamiyatining rivojlanishida boshqa alternativ yo'llarni qidirib topish zarurligini taqozo etuvchi omil bo'lib xizmat qildi [8].

Barqaror rivojlanish konsepsiyasining dastlabki nazariy asosi sifatida rus olimi V.I.Vernadskiy tomonidan yaratilgan noosfera to'g'risidagi ta'limot olinadi. Insoniyatni xo'jalik yuritishda global qayta qurishni amalga oshirishni nazarda tutuvchi bu konsepsiya, biosferani «noosfera»ga o'zgartirishni hayotiy zarurat, deb qarashni nazarda tutadi [6].

Amaliyotda bu konsepsiyani dastlab, italiyalik ishlab chiqaruvchi Aurelio Pechchi rivojlantirdi. U xalqaro miqyosda siyosiy, moliyaviy, madaniy va ilmiy soha vakillarini birlashtirgan Rim klubi – xalqaro jamoat tashkilotini (atalitik markaz) tuzdi. Tashkilot biosferani rivojlantirish istiqbollari va insonning tabiatga nisbatan gumanistik jihatdan munosabatda bo'lishi borasida ulkan ishlarni bajardi [13].

Rim klubi a'zolaridan D.Forresterning «Mirovaya dinamika» [15] hamda D.Medouzning «Predeli rosta» [4] nomli asarlari jahon rivojlanishining atrof-tabiiy muhitga bog'liq tomonlarini tahlil etish bilan ko'pchilikning diqqatini tortdi. Rim klubida qilingan ma'ruzada ular tomonidan «Agar shu holat (temp)da aholi soni, industrialashtirish va atrof-muhitni ifloslanishi davom etsa, oziq-ovqat ishlab chiqarish va tabiiy resurslar miqdorini tugashi o'z chegarasiga yetishi, undan so'ng birdaniga boshqarilmaydigan tarzda aholi sonining va ishlab chiqarish hajmini kamayishi kuzatilishi bashorat qilindi» [4].

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan atrof-muhit holati o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjudligini ilmiy jamoatchilik 1960-yillarning boshlarida to'liq anglay boshladi. Bu haqidagi dastlabki, butun dunyoga ovoza bo'lgan asar AQShlikbiolog olimi Reychel Karson tomonidan yozilgan «Soqov bahor» («Silence spring», 1965) asari bo'ldi. Olima atrof-muhit ifloslanishi ma'lum chegaragacha davom etishini, undan ortsa, tabiiy muhit inqirozga yuz tutishi mumkinligini asoslab berdi. Uning asari kishilik jamiyati a'zolarini ekologik ongini, saviyasini oshirishga katta hissa qo'shdi.

Shundan so'ng, barqaror rivojlanish bo'yicha turli yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilishi, ishlab chiqarish, demografik holat, atrof-muhitning holatini tahlil etish va modellashtirishga hamda ekologik muammolarga bag'ishlangan konferensiyalar faol ravishda o'tkazila boshlandi. Xalqaro maydonda dastlabki ekologik yo'nalishdagi konferensiya 1972-yil Stokgolmda o'tkazildi. Mazkur konferensiyadan so'ng jahon fani va ijtimoiy hayotiga quyidagi yangi «Ekologik imperativ», «Ekologik monitoring», «Ekologik inqiroz», «Ekologik halokat» kabi tushuncha va iboralar kiritildi. Ushbu konferensiya xulosasi asosida ekologik qonunchilik rivojlana boshladi jahonning ilg'or mamlakatlarida tabiat muhofazasi boshqaruviga asoslangan vazirliklar va muassasalar paydo bo'ldi [14].

1983-yili Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha Butun jahon komissiyasi tashkil etilib, unga Gro Xarlem Brundtland rahbarlik qildi. Uch yil davomida komissiya iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va ekologik omillarning o'zaro ta'siri va aloqadorligi masalalarini o'rgandi. Shu komissiya «barqaror rivojlanish» (sustainable development) tushunchasini ilk bor butun jahon hamjamiyatida ommalashtirdi. 1987 yili «Bizning umumiy kelajagimiz» deb nomlangan «Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha xalqaro komissiya» ma'ruzasida «Barqaror rivojlanish» zarurati qayd etilib, unga «bugungi kundagi ehtiyojlarni qondirish kelajak avlodning o'z ehtiyojlarini qondirishiga to'sqinlik qilmasligi kerak» [16], degan tavsif berildi va u bugungi kunda ko'pgina mamlakatlarda qo'llanilib kelinmoqda.

Braziliyaning Rio-de-Janeyro (1992) shahrida bo'lib o'tgan atrof-muhit muhofazasi va rivojlanishga bag'ishlangan navbatdagi konferensiyada kelgusi o'n yillik uchun ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy harakat dasturi –«XXI asr uchun kun tartibi» qabul qilindi. Unda Yer sharida barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun quyidagi tavsifa va mezonlar berilgan:

- iqtisodiyotning o'sishi Yer sayyorasining ekologik imkoniyatlari chegaralariga mos tushishi kerak;
- iqtisodiy rivojlanish atrof-muhit uchun xavfsiz bo'lishi kerak;
- rivojlanishni barqaror qilish – hozirgi avlod ehtiyojlarini kelajak avlodning ehtiyojlarini ta'minlash qobiliyatlarini xavf-xatarga qo'ymay ta'minlash;
- yer va tabiiy resurslarni jalpi milliy boylik sifatida ko'rish;

– odamlarning faolligini ularga yerga egalik qilish va ularning mahsulotlarining adolatli baholarda bozorga chiqarish vositalarida ta'minlash huquqini berish yo'li bilan rag'batlantirish;
kimyoviy moddalarning aholi salomatligi va atrof-muhit uchun xavfliligini aniqlash; bunday ma'lumotlar ko'pchilik moddalar uchun mavjud emas;

pestidsitlarni o'simliklarning biologik himoya qilish vositalar bilan almashtirish;

Mazkur tavsiya va tamoyillar zamirida ehtiyojni qondirish darajasida mahsulot ishlab chiqarish, aholi sonini, tabiatdagi antropogen o'zgarishlar ulushi hamda tiklanmaydigan resurslarning ishlatish miqdorini imkon qadar cheklash rivojlanishning barqaror yo'liga o'tishni asosiy shartlaridan biri ekanligi yotadi [7].

2012-yili Rio-de-Janeyroda BMTning barqaror rivojlanish bo'yicha «Rio+20» nomini olgan konferensiyasi ochilishida so'zga chiqqan BMTning Bosh kotibi Pan Gi Mun insoniyat yangi davrga qadam qo'yayotganligini qayd etdi. U 2040-yilga borib Yer shari aholisi 9 mlrd kishiga ko'payishini hisobga olib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eski modeli o'z ahamiyatini yo'qotganligini ta'kidladi.

Navbatdagi konferensiyada, 2015-yil 25-sentabrda Nyu-York shahrida BMTning 193 ta a'zo mamlakatlari 2015-yildan keyin amalga oshiriladigan harakatlar borasida barqaror rivojlanish sohasida Kun tartibini qabul qilishdi. Bashoratlarga ko'ra, mazkur dasturda qashshoqlik 2030 yilga kelib bartaraf etiladi va barqaror kelajak ta'minlanadi.

Ushbu konferensiyada jamiyat oldidagi maqsadlar va yangi vazifalar kompleks va ajralmas xarakterga ega ekanligi ta'kidlandi. Uning markazida barqaror rivojlanishning uch tamoyili – iqtisodiy o'sish, ijtimoiy taraqqiyot va atrof-muhit muhofazasini chambarchas bog'lovchi 17 ta maqsad va ularga birlashtirilgan 169 ta vazifa turadi.

O'zbekiston Respublikasi ham BMTning mazkur dasturiga qo'shilgan. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktabrdagi «2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 841-son qarori qabul qilinib, unga ko'ra, barqaror rivojlanish maqsadlarini davlat rivojlanish dasturlariga asta-sekin integratsiyalash, shuningdek Barqaror rivojlanish maqsadlarining O'zbekistonda amalga oshirilishi bo'yicha muntazam milliy ma'ruzalar tayyorlanishi ko'zda tutilgan [1].

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi negizida xususiy konsepsiyalar ham yaratilmoqda. Jumladan, jahonda qishloq xo'jaligi sohasini (yerdan foydalanishni) barqaror rivojlantirish maqsadida qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish konsepsiyasi - (sustainable agriculture) ishlab chiqildi Altieti M.A., Francis C.A., Madden J.R., O'Connell R.F.. Mazkur konsepsiya nuqtai-nazaridan yondashilganda, yerdan foydalanishni barqaror tashkil etish 3 ta talabga (mezonga) javob berishi zarur:

– birinchidan, tabiiy-ekologik jihatdan xavfsizlikni, agrogeotizimlarni barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlashi, salbiy degradatsion jarayonlarning (ikkilamchi sho'rlanish, eroziya va b.) rivojlanishiga yo'l qo'ymasligi;

– ikkinchidan, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashi, ya'ni aholiga kerakli miqdordagi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ishlab chiqarish tarmoqlariga esa qishloq xo'jaligi xom ashyosi yetkazib berishi;

uchinchidan, iqtisodiy jihatdan unumdorlikni, ishlab chiqarish tarmoqlaridagi daromadni yetarli miqdorda bo'lishini ta'minlashi kerak.

Ammo ta'kidlash kerakki, barqaror rivojlanish konsepsiyasining bu uch tarkibiy qismidagi talablar har doim ham bir-biriga mos tushavermaydi, qolaversa, uzoq vaqt davomida iqtisodiy mezonlarga ko'proq e'tibor qaratildi. Har qanday holatda ham iqtisodiy samaradorlikka erishish maqsadida qilingan harakatlar natijasida tabiiy-ekologik muammolar kelib chiqmoqda. Bundan tashqari, iqtisodiy unumdorlikni oshirish uchun sarflangan harajatlar miqdori yil sayin ortib bormoqda, ularni o'z vaqtida qoplash, yetishtirilgan mahsulot tannarxini kamaytirish rivojlangan mamlakatlardagi asosiy muammolardan biriga aylanmoqda.

Yer resurslaridan foydalanishni mintaqaviy sharoitda barqarorligini ta'minlovchi mexanizmni shakllantirish bugungi kunning asosiy talablaridan biridir. Bu jarayonda amalga oshiriladigan ishlarni yuqoridagi tamoyillarga amal qilgan holda, quyidagi yo'nalishlarda olib borish taklif etilmoqda [12]:

1. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanishda ishlab chiqarish jarayonini ekologizatsiyalash;

2. Cho'llanish, ikkilamchi sho'rlashuv, erroziya kabi salbiy jarayonlarning oldini olishga ko'maklashuvchi optimal yer fondi tarkibini yaratish, yer resurslari bilan undan foydalanish tartibi o'rtasida oqilona nisbatni, balansni topish;

3. Mintaqada yerdan foydalanish va uni o'g'itlashni tarixan shakllangan an'anaviy usullarini, chorvachilik tarmog'ini rivojlantirishni innovatsion usullarini qo'llash;

4. Tuproq unumdorligini ko'tarish, unga tushadigan antropogen bosim miqdorini minimal holatga keltirish, yerni muhofaza qilish ishlariga tabaqalashgan tabiiy landshaft xususiyatlariga asoslangan yondashuv tamoyillariga amal qilishni ta'minlovchi mintaqaviy dasturlar va landshaftli rejalashtirish mexanizmini takomillashtirish.

XULOSA

Geografiyada turli rivojlanish qonunlari asosida faoliyat yurituvchi hududiy-ishlab chiqarish va tabiiy-hududiy tizimlarning o'zaro ta'sirini ifodalovchi model yaratilgan [11]. Bunda ishlab chiqarish (qishloq xo'jaligi) va tabiiy tizimlarning o'zaro aloqasi yuz beradigan joy, o'zining tabiiy (iqlim, relyef, tuproq, suv...) va ishlab chiqarish (haydalma yer, o'tloq, mevazor...) unsurlariga ega bo'lgan qishloq xo'jalik yerlaridir. Bu tizimlarning o'zaro munosabatini muvofiqlashtirish ham yer resurslaridan oqilona foylanishni tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Oqilona foydalanish mezonini bo'lib esa ijtimoiy-ekologik va iqtisodiy unumdorlik xizmat qiladi. Yuqoridagi modulga tayangan holda, yaratilgan hududiy-ishlab chiqarish va tabiiy-hududiy tizimlarni o'zaro murosaga keltirish, muvozanatli, barqaror faoliyat ko'rsatishni ta'minlashda B.I.Kochurov tomonidan yaratilgan ekologik-xo'jalik muvozanati konsepsiyasi ilmiy va amaliy jihatdan yaxshi natija bermoqda [10]. Bu konsepsiyaga Yer resurslaridan foydalanishda barqarorlikni ta'minlashning asosiy vositalaridan biri sifatida qaralmoqda [9]. Bu konsepsiyaga muvofiq, hududlardagi barqarorlik ekologik va xo'jalik balansini muvofiqlashtirish orqali amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi 841-sonli Qarori.
2. Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish konsepsiyasi. Toshkent sh., 2019 yil 17 iyun, PF-5742-son
3. Abduvaliyev H.A.. Aholining hududiy tashkil etilishini landshaft omili asosida takomillashtirish (Farg'ona vodiysi misolida) // Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. T.: 2020. -128 b.
4. Антипова А.В. Географическое изучение использования территории при выявлении и прогнозировании экологических проблем / А.В. Антипова // География и природные ресурсы. – 1994. – №3. – С. 26-32.
5. Антипова А.В. Современный ландшафт как объект экодиагностического исследования / А.В. Антипова // Проблемы региональной экологии. – 2013. – №2. – С. 22–29.
6. Вернадский В.И. Биосфера и ноосфера. – М.: Наука, 1989. – 261 с.
7. Джумаев Т. Устойчивое развитие горной зоны Узбекистана (социально-экономические аспекты): Автореф. Дисс. доктора геогр. наук. – Т.: УзНУ, 2004. - 50 б.
8. Еремин Э.А. Антропогенизация ландшафтов и проблемы оптимизации эколого-хозяйственного баланса территории (на примере Краснодарского края). // Автореф. дис. канд. геогр. наук. Краснодар, 2005. 24 с.
9. Иванов Ю.Г., Кочуров Б.И. Характеристика эколого-хозяйственного состояния земель при землеустроительном проектировании. / В.кн.: Проблемы охраны земель и повышение их продуктивности. – М.: 1985. -С. 113-121.
10. Кочуров Б.И. Современное землеустройство и управление землепользованием в России [Текст] / Б.И.Кочуров, Ю.Г.Иванов // Устойчивое развитие сельского хозяйства и сельских территорий. Зарубежный опыт и проблемы России. – М. – 2005. – С. 323–324.
11. Крючков В.Г. Использование земель и продовольственные ресурсы. – М.: Мысль, 1987. -231с.
12. Лойко П. Ф. Проблемы земельных преобразований в России на рубеже XXI века // Использование и охрана природных ресурсов России – 2020. -№2. –с. 52-61.
13. Nigmatov A., Kulmatov R., Rasulov A., Muxamedov Sh. Barqarorrivojlanishvauningtizimliindikatorlari // Monografiya. T.: «SpectrumMediaGroup», 2015.-120 b.
14. Нигматов А. ва бошқалар. Экологик таълимдан барқарор ривожланиш таълими сари. /А.Н.Нигматовнинг умумий таълими остида. Қўлланма - Т., «Talqin» нашриёти, 2007. - 144 б.
15. Переуплотнение пахотных почв: причины, следствия, пути уменьшения. // Под ред. В.А. Ковда. – М.: Наука, 1987. - 215 с.
16. Қосимова Н. Ўзбекистон оммавий ахборот воситалари барқарор ривожланиш манфаатлари йўлидаги таълим соҳасидаги ҳамкор сифатида. Ўқув-амалийқўлланма. Т.: 2018.